



# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-mart oylari  
uchun dastlabki ma'lumot*

## TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi:  
(71) 203-88-20(21)*



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Toshkent shahrida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-mart oylarida Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **6 093,4** mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **264,1** mln. AQSH dollariga yoki **4,5 %** ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-mart 2024 y., mln. AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **6 093,4** +4,5 %

(2023- y.: **5 829,3**)



Saldo

2024- y.: **-3 865,6** (2023- y.: -3 701,6)



### Eksport

2024- y.: **1 113,9** +4,7 %

(2023- y.: **1 063,8**)

TSA'dagi ulushi, % da



### Import

2024- y.: **4 979,5** +4,5 %

(2023- y.: **4 765,4**)



**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 1 113,9 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 4,7 % ga ko‘paydi) va import hajmi 4 979,5 mln. AQSH dollariga (4,5 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida -3 865,6 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-mart oylari, mln. AQSH dollari)

<p><b>Rossiya</b></p> <p>TSA – 1 666,9</p> <p>Eksport: 217,0 Import: 1 449,9</p> <p> 27,4 %</p>	<p><b>XXR</b></p> <p>TSA – 1 315,2</p> <p>Eksport: 182,1 Import: 1 133,1</p> <p> 21,6 %</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p>TSA – 445,9</p> <p>Eksport: 94,5 Import: 351,4</p> <p> 7,3 %</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p>TSA – 276,1</p> <p>Eksport: 84,9 Import: 191,2</p> <p> 4,5 %</p>	<p><b>Turkmaniston</b></p> <p>TSA – 171,3</p> <p>Eksport: 6,5 Import: 164,8</p> <p> 2,8 %</p>
<p><b>AQSH</b></p> <p>TSA – 147,8</p> <p>Eksport: 27,8 Import: 120,0</p> <p> 2,4 %</p>	<p><b>Germaniya</b></p> <p>TSA – 141,7</p> <p>Eksport: 10,5 Import: 131,2</p> <p> 2,3 %</p>	<p><b>Hindiston</b></p> <p>TSA – 132,4</p> <p>Eksport: 5,9 Import: 126,5</p> <p> 2,2 %</p>	<p><b>BAA</b></p> <p>TSA – 99,7</p> <p>Eksport: 19,8 Import: 79,9</p> <p> 1,6 %</p>	<p><b>Yaponiya</b></p> <p>TSA – 95,0</p> <p>Eksport: 4,6 Import: 90,4</p> <p> 1,6 %</p>

Toshkent shahri jahonning 159 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (27,4 %), XXRda (21,6 %), Qozog‘istonda (7,3 %), Turkiyada (4,5 %) va Turkmanistonda (2,8 %) qayd etilgan.



## TOSHKENT SHAHRINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSH dollari)


Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
<b>Rossiya</b>	<b>944,8</b>	<b>1 145,0</b>	<b>1 666,9</b>
<i>Eksport</i>	140,8	265,9	217,0
<i>Import</i>	804,0	879,1	1 449,9
<b>XXR</b>	<b>1 018,6</b>	<b>1 150,9</b>	<b>1 315,2</b>
<i>Eksport</i>	216,4	161,1	182,1
<i>Import</i>	802,2	989,8	1 133,1
<b>Qozog'iston</b>	<b>375,8</b>	<b>436,5</b>	<b>445,9</b>
<i>Eksport</i>	74,1	92,3	94,5
<i>Import</i>	301,7	344,2	351,4
<b>Turkiya</b>	<b>272,7</b>	<b>357,8</b>	<b>276,1</b>
<i>Eksport</i>	74,4	91,3	84,9
<i>Import</i>	198,3	266,5	191,2
<b>Turkmaniston</b>	<b>147,3</b>	<b>228,8</b>	<b>171,3</b>
<i>Eksport</i>	15,8	32,4	6,5
<i>Import</i>	131,5	196,4	164,8
<b>AQSH</b>	<b>112,5</b>	<b>83,4</b>	<b>147,8</b>
<i>Eksport</i>	12,2	13,8	27,8
<i>Import</i>	100,3	69,6	120,0
<b>Germaniya</b>	<b>308,0</b>	<b>561,4</b>	<b>141,7</b>
<i>Eksport</i>	12,0	7,5	10,5
<i>Import</i>	296,0	553,9	131,2
<b>Hindiston</b>	<b>100,5</b>	<b>80,1</b>	<b>132,4</b>
<i>Eksport</i>	8,2	2,0	5,9
<i>Import</i>	92,3	78,1	126,5
<b>BAA</b>	<b>90,3</b>	<b>97,3</b>	<b>99,7</b>
<i>Eksport</i>	19,9	33,1	19,8
<i>Import</i>	70,4	64,2	79,9
<b>Yaponiya</b>	<b>32,8</b>	<b>12,5</b>	<b>95,0</b>
<i>Eksport</i>	5,8	1,5	4,6
<i>Import</i>	27,0	11,0	90,4



	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	<b>Chexiya</b>	<b>21,9</b>	<b>46,0</b>	<b>92,0</b>
	<i>Eksport</i>	4,3	7,5	13,5
	<i>Import</i>	17,6	38,5	78,5
	<b>Tojikiston</b>	<b>58,2</b>	<b>57,4</b>	<b>90,4</b>
	<i>Eksport</i>	46,3	51,3	56,7
	<i>Import</i>	11,9	6,1	33,7
	<b>Afg'oniston</b>	<b>91,7</b>	<b>87,1</b>	<b>90,1</b>
	<i>Eksport</i>	90,7	86,8	89,0
	<i>Import</i>	1,0	0,3	1,1
	<b>Fransiya</b>	<b>42,4</b>	<b>100,8</b>	<b>89,6</b>
	<i>Eksport</i>	2,2	0,2	4,0
	<i>Import</i>	40,2	100,6	85,6
	<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>71,3</b>	<b>91,4</b>	<b>84,6</b>
	<i>Eksport</i>	4,0	4,0	8,5
	<i>Import</i>	67,3	87,4	76,1
	<b>Litva</b>	<b>56,8</b>	<b>144,0</b>	<b>77,1</b>
	<i>Eksport</i>	6,7	12,4	9,4
	<i>Import</i>	50,1	131,6	67,7
	<b>Belarus</b>	<b>57,5</b>	<b>71,9</b>	<b>71,6</b>
	<i>Eksport</i>	7,9	9,2	13,7
	<i>Import</i>	49,6	62,7	57,9
	<b>Buyuk Britaniya</b>	<b>32,5</b>	<b>69,8</b>	<b>68,2</b>
	<i>Eksport</i>	13,4	25,3	31,6
	<i>Import</i>	19,1	44,5	36,5
	<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>51,8</b>	<b>49,6</b>	<b>63,3</b>
	<i>Eksport</i>	45,2	34,1	49,1
	<i>Import</i>	6,6	15,5	14,2
	<b>Gruziya</b>	<b>27,7</b>	<b>27,1</b>	<b>58,1</b>
	<i>Eksport</i>	4,5	6,8	12,4
	<i>Import</i>	23,2	20,3	45,7




## TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar – mart mln. AQSH doll.)\*



Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 15,2 % ulush bilan 926,8 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bektemir tumani 2,5 % ulush bilan 155,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

## TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 42,3 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 7,1 % ga ko'paydi.



Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar-mart oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 7,1 % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi 57,7 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-mart oylari holatiga ko'ra, 2 566,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 460,0 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 2 106,3 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




### TOSHKENT SHAHRINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (27,4 %), Qozog'iston (7,3 %) hamda Turkmaniston (2,8 %) davlatlari bilan qayd etildi.



## TOSHKENT SHAHRINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari)



Toshkent shahrining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 2 250,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 375,9 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 1 874,4 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iz Respublikasi va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar-mart)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, Toshkent shahrining eksportyorlar soni 1 218 taga yetdi va ular tomonidan 1 113,9 mln. AQSH dollari (*nomonetar oltingan tashqari*) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 4,7 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-mart ulushi % da)



Toshkent shahrida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>1 063,8</b>	<b>1 113,9</b>	<b>115,2</b>	<b>104,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	61,7	49,1	133,3	79,6	5,8	4,4
Ichimliklar va tamaki	20,0	17,5	255,3	87,5	1,9	1,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11,9	12,7	80,6	106,7	1,1	1,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	35,5	67,5	43,0	190,1	3,3	6,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,2	1204,2	200,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	78,4	66,4	95,5	84,7	7,4	6,0
Sanoat tovarlari	213,0	214,2	121,2	100,6	20,0	19,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	115,7	80,5	231,8	69,6	10,9	7,2
Turli xil tayyor buyumlar	40,9	46,7	127,5	114,2	3,9	4,2
Boshqa tovarlar	6,8	10,7	0,0	157,4	0,6	1,0
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	0,0	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	479,8	548,4	111,0	114,3	45,1	49,2

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 50,8 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (19,2 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (7,2 %) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (6,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.


2024- yilning yanvar-mart oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,7 % ga kamaygan.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Afg'oniston, Turkiya, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 69,4 % ni tashkil etdi.

### TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, % da)





## TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-mart)*


Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	265,9	217,0	188,8	81,6	1	1
XXR	161,1	182,1	74,4	113,0	2	2
Qozog'iston	92,3	94,5	124,5	102,4	3	3
Afg'oniston	86,8	89,0	95,8	102,5	5	4
Turkiya	91,3	84,9	122,7	93,0	4	5
Tojikiston	51,3	56,7	110,9	110,5	6	6
Qirg'iz Respublikasi	34,1	49,1	75,4	144,0	7	7
Buyuk Britaniya	25,3	31,6	189,4	124,9	10	8
AQSH	13,8	27,8	112,9	2,0 m.	12	9
BAA	33,1	19,8	166,7	59,8	8	10
Ozarbayjon	10,1	14,9	106,9	147,5	15	11
Belarus	9,2	13,7	116,6	148,9	17	12
Chexiya	7,5	13,5	172,4	180,0	19	13
Kanada	7,6	13,2	5,3 m.	173,7	18	14
Gruziya	6,8	12,4	152,1	182,4	21	15
Latviya	11,3	11,0	2,1 m.	97,3	14	16
Germaniya	7,5	10,5	62,3	140,0	20	17
Polsha	4,5	10,2	92,3	2,3 m.	25	18
Shvetsiya	0,4	9,9	4,5 m.	24,7 m.	51	19
Litva	12,4	9,4	185,5	75,8	13	20





## TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-mart, mln.AQSH doll.)



Toshkent shahar eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 21,1 % bilan 234,6 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bektemir tumani 1,2 % bilan 13,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.




## TOSHKENT SHAHRINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 4 979,5 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,5 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (28,5 %), sanoat tovarlari (18,0 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (13,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-mart, ulushi, % da)




Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,5 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 4 979,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 320,9 mln. AQSH dollariga yetdi.




## TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>4 765,4</b>	<b>4 979,5</b>	<b>130,9</b>	<b>104,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	438,2	403,1	101,0	92,0	9,2	8,1
Ichimliklar va tamaki	30,8	56,1	132,7	182,2	0,6	1,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	58,0	47,5	100,6	81,9	1,2	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	401,5	721,5	181,6	179,7	8,4	14,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	72,9	34,4	198,1	47,1	1,5	0,7
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	689,3	684,0	111,4	99,2	14,5	13,7
Sanoat tovarlari	693,5	897,1	99,9	129,4	14,6	18,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1781,9	1417,9	151,1	79,6	37,4	28,5
Turli xil tayyor buyumlar	201,1	223,9	100,9	111,3	4,2	4,5
Boshqa tovarlar	175,5	173,1	0,0	98,6	3,7	3,5
Xizmatlar	222,7	320,9	127,4	144,1	4,7	6,4

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024- yil yanvar-mart natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 42,3 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 9,9 % ga ko'paydi.

### MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari, ulushi)



 2024- yil yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida 159 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Turkmaniston, Germaniya va Hindiston) jami importning 71,2 % ni tashkil etdi.



### TOSHKENT SHAHAR IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, % da)






## TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	879,1	1 449,9	109,3	164,9	2	1
XXR	989,8	1 133,1	123,4	114,5	1	2
Qozog'iston	344,2	351,4	114,1	102,1	4	3
Turkiya	266,5	191,2	134,4	71,7	5	4
Turkmaniston	196,4	164,8	149,4	83,9	6	5
Germaniya	553,9	131,2	187,1	23,7	3	6
Hindiston	78,1	126,5	84,6	162,0	11	7
AQSH	69,6	120,0	69,4	172,4	12	8
Yaponiya	11,0	90,4	40,7	8,2 m.	40	9
Fransiya	100,6	85,6	2,5 m.	85,1	9	10
BAA	64,2	79,9	91,2	124,5	14	11
Chexiya	38,5	78,5	2,2 m.	2,0 m.	20	12
Koreya Respublikasi	87,4	76,1	129,9	87,1	10	13
Litva	131,6	67,7	2,6 m.	51,4	7	14
Belarus	62,7	57,9	126,4	92,3	15	15
Italiya	56,2	52,3	140,9	93,1	16	16
Gruziya	20,3	45,7	87,5	2,2 m.	29	17
Polsha	46,4	41,4	2,5 m.	89,2	18	18
Saudiya Arabistoni	31,0	37,8	102,3	121,9	22	19
Vyetnam	13,0	37,4	80,7	2,9 m.	28	20





## TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-mart, mln. AQSH doll.)



Toshkent shahrining importi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 13,9 % bilan 692,2 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangihayot tumani 2,4 % bilan 117,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.